

KRIMINOLOGIYA VA FUQAROLIK HUQUQI

Kuldashev Nuriddin Abduganiyevich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Fuqaroviy huquqiy fanlar kafedrası boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada kriminologiya va fuqarolik huquqining predmeti, vazifasi hamda ularning o'zaro bog'liqligi qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish va unga qarshi kurashda fuqarolik huquqining o'rni hamda ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kriminologiya, fuqarolik huquqi, deliktologiya, delikt, huquqbuzarliklar profilaktikasi.

Abstract. This article provides a comparative analysis of the subject, functions and interrelation of criminology and civil law. It also highlights the role and importance of civil law in preventing and combating offenses.

Keywords: criminology, civil law, delictology, tort, crime prevention.

Bugungi dunyoda ijtimoiy munosabatlarning o'ta tez sur'atlarda rivojlanishi va murakkablashuvi mazkur munosabatlarni kompleks huquqiy tartibga solish zaruratini taqozo etmoqda. Ta'kidlash joizki, mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o'tishi jamiyatning nafaqat iqtisodiy, balki boshqa sohalariga ham o'z ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Ayniqsa, jinoyatchilik, huquqbuzarliklarning yangi-yangi turlari, ko'rinishlari paydo bo'lmoqdaki, bu huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga jiddiy vazifalarni qo'ymoqda. Shu bois, huquq-buzarliklarga qarshi kurashish va uning oldini olishda nafaqat kriminologiya, balki fuqarolik huquqi institutlarining ham foydalanilmagan barcha imkoniyatlarini safarbar etish davr talabidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'biri bilan aytganda, "Yangi O'zbekistonda qonun ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar bo'lishi shart. Va, albatta, shunday bo'ladi" [1].

Jamiyatda shaxslar o'rtasida vujudga kelayotgan har qanday turdagi ijtimoiy munosabatlarda mulkiy va shaxsiy manfaatlar ustuvorligining ortib borishi pirovardida shaxsga qarshi va iqtisodiyot sohasidagi huquqbuzarliklarni huquqiy tartibga solishda bozor shart-sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashgan fuqarolik huquqiga ehtiyoj sezilmoqda. Zero, huquqbuzarliklarning eng xavfli shakli bo'lgan jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari va omillarida ham mulkiy manfaatdorlik yuqori ekanligini kuzatish mumkin. Jumladan, iqtisodiy, mulkiy, oilaviy, tadbirkorlik sohasidagi nizolar

ko'p hollarda huquqiy ahamiyatga ega bo'lib, ba'zida ular kriminologik xususiyat kasb etadi. Ya'ni, mazkur nizolar oqibatida yuqorida keltirilgan muayyan huquqbuzarlik turi sodir etilishi mumkin. Masalan, fuqarolar o'rtasidagi qarz munosabatlaridek ko'ringan mulkiy munosabatlar ba'zida firibgarlik jinoyatini, bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxs yoki oila a'zolari o'rtasidagi nizolar esa, odatda, turmushdagi kelishmovchilikdek ko'rinsa-da, oilaviy (maishiy) zo'ravonlik huquqbuzarligini keltirib chiqarishi mumkin. Mazkur mulkiy va oilaviy nizolarni o'z vaqtida qonuniy hal qilish orqali esa sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning oldini olishga yoki barvaqt to'xtatishga erishish mumkin.

Ma'lumki, iqtisodiy, mulkiy va oila-turmush sohasidagi huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlarini himoya qilishda fuqaroviy-huquqiy himoya usullari universallik kasb etadi. Zero, akademik H. Rahmonqulov ta'kidlaganidek, fuqarolik huquqi "mulkiy munosabatlarda huquqni himoya qilishning eng mos va qulay usuli" [2], hisoblanadi.

Har qanday huquq sohasini huquq tarmog'i yoki fan sohasi sifatida e'tirof etish uchun, avvalo, u o'z predmetiga ega bo'lishi kerak. Chunonchi, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar-ga ta'sir ko'rsatish va uni huquqiy tartibga solish huquq tarmog'i sifatida uning vazifasi bo'lsa, o'z metodlari orqali o'zining predmeti hisoblangan ijtimoiy munosabatlarni o'rganish, ta'riflash, tushuntirish, tahlil qilish kabilar esa fan sifatida

uning asosiy vazifasidir. Aynan shuning uchun ham barcha huquq tarmoqlari va huquqiy fanlar o'rtasida o'zaro aloqadorlik va mustahkam bog'liqlik mavjud. Bu borada kriminologiya fani ustuvorlik kasb etadi.

Fuqarolik huquqi fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy maqomini, mulkiy huquqlar va boshqa mulk bilan bog'liq huquqlarning vujudga kelishi va amalga oshirish tartibini, intellektual faoliyat natijalariga nisbatan mutlaq huquqlarni, shartnomaviy va boshqa majburiyatlarni, shuningdek mulkiy va boshqa shaxsiy nomulkiy munosabatlarni belgilaydi va tartibga soladi. Bundan tashqari, fuqarolik huquqi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni ham tartibga soladi. Insonning shaxsiy huquq va erkinliklari hamda boshqa nomoddiy ne'matlari ham fuqarolik qonunchiligi bilan himoyalanaadi va tartibga solinadi. Fuqarolik huquqi huquq sohasining asosiy, muhim va ajralmas qismi hisoblanadi.

Fuqarolik huquqi ayni vaqtda moliya, bank, soliq, tadbirkorlik, mualliflik, oila huquqi kabi huquq sohalarining asosi ham hisoblanadi. Chunki, mazkur huquq sohalari tartibga soladigan munosabatlar negizida mulk yoki mulk bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yotadi. Fuqarolar va yuridik shaxslar faoliyatining turli nizoli va kriminogen tomonlari ham bevosita fuqarolik huquqi bilan bog'liq. Xususan, jamiyatdagi mulkka, shaxsga va boshqa ijtimoiy munosabatlarga qarshi jinoyatlar bevosita fuqarolik huquqbuzarliklari bilan bog'langan. Masalan, bugungi kunda sodir etilayotgan jinoyatlarning 70–80 foizi mulkiy xususiyatga ega bo'lib, ularning sodir etilishi asosan fuqarolik huquqi subyektlarining mulki yoki mulkiy huquqlarini buzish orqali namoyon bo'lmoqda. Mazkur g'ayriqonuniy yoki huquqqa xilof harakat (harakatsizlik)lar oqibatida esa yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlariga zarar yetmoqda.

Ma'lumki, g'ayriqonuniy yoki huquqqa xilof harakat (harakatsizlik) kriminologiya va jinoyat huquqi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan kompleks fan – deliktologiya fanining asosiy predmetini tashkil etadi. Nisbatan yangi bo'lgan "Deliktologiya" fani huquqbuzarliklar haqidagi fandir. Huquqbuzarlikning jinoiy, ma'muriy turlari bilan birga, fuqaroviy turlari ham mavjud va bu sivilistikada "delikt javobgarliklar" deb nom-

lanadi. "Delikt" lotincha "deliktum" so'zidan olingan bo'lib, "buzish", "ayb" kabi ma'nolarni anglatadi [3]. Yuridik adabiyotlarda, jumladan sivilistikada buni huquqshunoslar "zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar", "delikt majburiyatlar", "huquqbuzarlikdan kelib chiqadigan majburiyatlar", "shartnomasiz majburiyatlar", "nojoiz (man etilgan) harakatlardan kelib chiqqan majburiyatlar" [4], deb ham ataydilar.

MDH davlatlari, jumladan Ozarbayjon Respublikasi Fuqarolik kodeksining 59-bobi "Fuqaroviy huquqbuzarlik (deliktlar)" [5], Moldova Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1398-moddasi "Delikt javobgarlikning umumiy asoslari va shartlari" [6] deb nomlangan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida "delikt" iborasi uchramasa-da, Kodeksning 57-bobi "Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar" deb nomlanib, buni sivilistlar leksikonida "deliktlar" deb ham atashadi.

Fuqarolik huquqining "Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar", ya'ni delikt institutining vazifasi kriminologiya bilan bevosita bog'liq. Masalan, Fuqarolik kodeksining 986-moddasi "Zarar yetkazishning oldini olish" deb nomlanib, unda "kelgusida zarar yetkazilishi xavfi borligi bunday xavfni yuzaga keltiradigan faoliyatni taqiqlash to'g'risida da'vo qo'zg'atishga asos bo'lishi mumkin"ligi nazarda tutilgan. Ya'ni, qonunda har qanday shaxs tomonidan har qanday xavf-xatarning oldini olish maqsadida tegishli idora yoki sudga murojaat etish huquqi mavjudligi belgilangan. Bu esa nafaqat zarar yetkazishning, balki muayyan huquqbuzarlikning oldi olinishiga ham xizmat qilishi mumkin.

Demak, fuqarolik huquqining delikt instituti nafaqat yetkazilgan zararining to'liq hajmda qoplanishini, balki jamiyatda subyektlarning g'ayriqonuniy harakatlar qilmasligini, qonunchilikka rioya qilishni, fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va boshqa manfaatlariga, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkiga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni ta'minlaydi hamda jamiyatda turli huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Shu jihatlar bilan fuqarolik huquqining delikt instituti bajaradigan vazifa profilaktik xususiyatga ham egadir.

Professor Q.R. Abdurasulova ta'kidlaganidek, kriminologiya fani oldida nafaqat jino-

yatchilikning ayrim muammolari, uning hozirgi bosqichdagi ba'zi bir sabablari, profilaktika subyektlari tizimi, ularning vazifalari hamda ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlariga doir nuqtayi nazarlarni yangilash va asoslash kabi metodologik xususiyatga ega bo'lgan muhim vazifalar, balki o'tish davri iqtisodiyoti sohasidagi g'ayriijtimoiy hodisalarning turli omillarini aniqlash va atroflicha tahlil qilish zarurati ham tug'ilmoqda. Jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyat, investitsiyalar, xo'jalik yuritishning davlat va xususiy sektorlari, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat tuzilmalari, kichik qo'shma korxonalar, moliya, kredit, soliq va boshqa sohalarda jinoyatchilikning oldini olish muammolari, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etayotir [7]. Shunga ko'ra, fuqarolik huquqi, xususan, delikt majburiyatlar institutiga oid ilmiy tadqiqotlarning natijalari ko'plab huquqbuzarliklarning, ayniqsa, iqtisodiyot, oila va shaxsga qaratilgan jinoyatlarning sabablarini tushunishda va uning profilaktikasida, barvaqt oldini olishda katta ahamiyatga ega.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, oila huquqi fuqarolik huquqidan ajralib chiqqan mustaqil fan va huquq tarmog'i bo'lib, fuqaroviy-huquqiy munosabatlar oila huquqi bilan chambarchas bog'liq. Oilada er-xotin o'rtasidagi turli salbiy munosabatlar, ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning bolalarni o'qitish va tarbiyalash borasidagi majburiyatlarini bajar-masliklari, erta nikoh, nikohni tugatish va ajrimlar, to'liq bo'lmagan oilalar, oilaviy (maishiy) nizolar, bolalarga nisbatan mulkiy yoki boshqa turdagi zo'ravonliklar, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan va qarovsiz bolalar kabi nizolar oila huquqi bilan birga kriminologiyaning ham u yoki bu darajadagi tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi O'RQ-829-son qonuniga asosan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga (592-modda. Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik) va Jinoyat kodeksiga (1261-modda. Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik) qo'shimcha moddalar, ya'ni yangi huquqbuzarlik turi kiritildi. Unga ko'ra, "xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan mulk, ta'lim olish, sog'liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oshirishga

to'sqinlik qilish, mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek, ushbu shaxslar sog'lig'ining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni qo'r-qitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo'yish" kabi g'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) ma'muriy yoki jinoiy javoblikni keltirib chiqaradi. Fuqarolarning oila qonunchiligiga rioya qilishini ta'minlash esa mazkur oilaviy (maishiy) huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqib, kriminologiya va fuqarolik huquqining o'zaro bog'liqligi borasida quyidagilarni bayon qilish mumkin:

birinchidan, iqtisodiyot sohasidagi huquqbuzarliklarning sabablari va omillarining yaxlit manzarasini berish, mazkur huquqbuzarliklarning oldini olish tizimining umumiy konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish fuqarolik huquqsiz mumkin emas;

ikkinchidan, shaxsga qarshi jinoyatlar insonning hayoti, sog'lig'i, jinsiy erkinligi kabi ajralmas huquqlariga qaratilgan bo'lib, bunday huquqbuzarliklar oqibatida har doim shaxsga ma'naviy zarar yetadi va uni qoplash masalasi vujudga keladi. Ma'naviy zarar esa, fuqarolik huquqining eng muhim institutlaridan biri hisoblanadi;

uchinchidan, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi huquqbuzarliklarning kriminologik tavsifi hamda uning oldini olish kabi masalalar kriminologiyaning muhim yo'nalishlari hisoblanadi. Shunga ko'ra iqtisodiy sharoitlar, oiladagi muhit, bolalar manfaatlari, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari kabi jihatlar oila huquqi nuqtayi nazaridan o'rganilishi lozim;

to'rtinchidan, fuqarolik huquqining alohida obyektlari, masalan, shartnoma va bitimlar (qarz, kredit, oldi-sotdi va h.k.), mulk huquqi, majburiyatlar huquqi, delikt, ma'naviy zarar va shu kabilar qoidalariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash iqtisodiy sohadagi, xususan, firibgarlik, talonchilik, o'g'irlik kabi jinoyatlarning barvaqt oldini olishga xizmat qiladi;

beshinchidan, fuqarolik huquqining tarbiyaviy funksiyasi kriminologiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunda soha vakillarining hamkorligida aholi o'rtasida tushuntirishlar berish, huquqiy targ'ibotlar o'tkazish, o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish kabilar orqali fuqarolarning

huquqiy savodxonligini oshirishga hamda ularning huquqbuzarlik qurboniga aylanib qolishining oldini olishga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, har qanday huquq sohasi huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish yoki unga qarshi kurashishga ko'maklashish orqali kriminologiya bilan bevosita bog'liq. Zero, huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkam-

lash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish birgina kriminologiya emas, balki kompleks huquq tarmoqlari imkoniyatlaridan foydalanishni taqozo etadi.

Foydalanilgan manbalar

1. Mirziyoyev Sh.M. Biz bunga hech qachon jim qarab turolmaymiz // URL: <https://kun.uz/kr/05878628>
2. Rahmonqulov H. Majburiyat huquqi (Umumiy qoidalar). –T.: TDYUI, 2005. – B.110.
3. Ba'zi lug'atlarda ushbu atama huquqbuzarlik deb tarjima qilingan, jumladan: Yuridik ensiklopediya. – T.: Sharq nashriyoti, 2001. – 111-b.; O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi / R.A.Muhiddinov va boshq.; mas'ul muharrir N.Toychiyev. – T.: Adolat, 2009. – 130-b.; Англо-русский словарь: 53000 слов. 20-е изд., стереотип. – М.: Рус.язык, 1985. – С. 194.
4. Флейшиц Е.А. Обязательства из причинения вреда и неосновательного обогащения. – М., 1951. – С.7; Смирнов В.Т., Собчак А.А. Общее учение о деликтных обязательствах в советском гражданском праве. – Ленинград: ЛГУ., 1983. – С. 257.
5. Гражданский кодекс Азербайджанской Республики / Азербайджанский юридический портал [Электронный ресурс]: Режим доступа: www.lex.justice.md/. свободный. – Загл. с экрана. – Яз.рус
6. Гражданский кодекс Республики Молдовы // Registrul de stat al aktelor al Republicii Moldova / [Электронный ресурс]: Режим доступа: www.lex.justice.md/. свободный. – Загл.с экрана. – Яз.рус.
7. Abdurasulova Q. R. Kriminologiya: Darslik / Mas'ul muharrir prof. M.H. Rustamboyev. – T.: TDYUI nashriyoti, 2008. – 12–13-b.

